

## OROL FOJEASINING VUJUDGA KELISH SABABLARI VA IJTIMOY-EKOLOGIK OQIBATLARI

Ravshanqulov Firdavs Mashraf o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21054930>

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda Orol dengizining qurishi, uning tarixiy sabablari hamda Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston ijtimoiy hayotiga ko'rsatgan salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. Orol muammosi XX asrning ikkinchi yarmida sobiq sovet davrida olib borilgan paxta yakkahokimligi siyosati, Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan rejasiz foydalanish hamda ekologik omillarni yetarli hisobga olmaslik natijasida yuzaga kelgan global ekologik falokat sifatida baholanadi. Tadqiqotda Orol dengizi sathining pasayishi, sho'rlanish jarayonining kuchayishi, baliqchilik xo'jaligining inqirozi, aholi salomatligi va turmush tarziga yetgan zararlar yoritiladi. Shuningdek, Orol fojeasi inson va tabiat o'rtasidagi muvozanat buzilganda yuzaga keladigan xavfli oqibatlarning tarixiy sabog'i sifatida talqin qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Orol dengizi, ekologik fojea, paxta yakkahokimligi, suv resurslari, Amudaryo, Sirdaryo, Orolbo'yi, ijtimoiy oqibatlar, ekologik xavfsizlik.

Bugungi zamonaviy dunyoda ekologik muammolar nafaqat tabiiy fanlar, balki ijtimoiy fanlar oldida ham dolzarb ilmiy-amaliy vazifalarni qo'yimoqda. Chunki ekologik inqirozlar bevosita inson salomatligi, aholi turmush darajasi, migratsiya, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy xavfsizlik bilan bog'liqdir. Orol dengizi bir vaqtlar dunyodagi eng yirik ichki suv havzalaridan biri bo'lib, Amudaryo va Sirdaryo suvlari hisobiga to'yinib kelgan. Uning maydoni 1960-yillarga qadar qariyb 68 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etgan, suv hajmi esa 1 100 km<sup>3</sup> atrofida bo'lgan. Dengiz 1 100 dan ortiq orollarni o'z ichiga olgani sababli "Orol" nomi bilan atalgan.[1]

**Asosiy qism,** Orol dengizining qurish jarayoni asosan XX asrning 50–60-yillaridan boshlab keskin tus oldi. Bu davrda sobiq sovet hokimiyati tomonidan Markaziy Osiyoda paxtachilikni kengaytirish, yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'oriladigan maydonlarni ko'paytirish siyosati olib borildi. Natijada Amudaryo va Sirdaryo suvlari katta hajmda irrigatsiya tizimlariga burildi[2]. Ayniqsa, paxta yakkahokimligi siyosati Orol fojeasining asosiy tarixiy sabablaridan biri bo'ldi. Qo'riq va bo'z yerlarning katta hajmda o'zlashtirilishi, suv omborlari, kanallar va nasos stansiyalarining ekologik oqibatlar hisobga olinmasdan qurilishi dengiz taqdiriga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Sobiq Ittifoq davrida "tabiatni bo'ysundirish" shiori ostida olib borilgan yirik xo'jalik tadbirlari Orol dengizi ekologik muvozanatini izdan chiqardi[3]. Orol dengizi qurishiga ta'sir ko'rsatgan muhim omillardan yana biri yirik kanallar qurilishi bo'ldi. Jumladan, 1957-1967-yillarda Turkmanistonda qurilgan Qoraqum kanali Amudaryo suvining katta qismini sug'orishga yo'naltirdi. Kanal uzunligi 950 km bo'lib, uning o'zanida Hovuzxon, Kopetdog' va Tajan kabi suv omborlari barpo etildi. Kanalda suvning bug'lanishi va qumga shimilib ketishi natijasida har yili katta miqdorda suv yo'qolib bordi[4]. Orol dengizining qurishi natijasida bir qator ekologik va ijtimoiy muammolar yuzaga keldi. Avvalo, dengiz sathi pasaydi, suv hajmi qisqardi, sho'rlanish darajasi ortdi. Bu esa baliqchilik xo'jaligining inqiroziga olib keldi. XX asrning 50–60-yillarida Orolbo'yida 10 ta baliq zavodi faoliyat yuritgan, mahalliy aholi yiliga 45 ming tonnagacha baliq ovlagan. Ammo dengiz suvining keskin kamayishi va sho'rlanishi baliqchilik sanoatining izdan chiqishiga sabab bo'ldi[5]. 1960-1987-yillar oralig'ida Orol dengizi sathi qariyb 13 metrga pasaygan, maydoni esa deyarli 40 foizga qisqargan. 1961–1991-yillar davomida dengiz hajmi uch barobar kamayib, ayrim joylarda qirg'oq chizig'i 75-100 km gacha chekingan[6]. Orol dengizining qurishi nafaqat

tabiiy muhitga, balki aholi salomatligiga ham katta zarar yetkazdi. Qurigan dengiz tubidan ko'tarilgan tuz, chang va kimyoviy moddalar Orolbo'yi hududida ekologik vaziyatni yanada og'irlashtirdi. Natijada nafas yo'llari kasalliklari, kamqonlik, buyrak xastaliklari, gepatit, sil va boshqa kasalliklarning ko'payishi kuzatildi[7]. Orol dengizining qurishi mintaqa iqlimiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Dengiz ilgari yozda issiqlikni yumshatib, qishda sovuqni mo'tadillashtirib turuvchi tabiiy omil bo'lgan. Uning qisqarishi natijasida yoz yanada issiq va quruq, qish esa sovuqroq bo'la boshladi. Bu holat qishloq xo'jaligi, chorvachilik va aholining kundalik turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatdi[8].

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Orol dengizi fojeasi sobiq sovet davrida paxta yakkahokimligi siyosati, suv resurslaridan haddan tashqari va rejasiz foydalanish, ekologik muvozanatning buzilishi natijasida yuzaga kelgan texnogen ekologik falokatdir. Bu fojea Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga, ayniqsa Orolbo'yi aholisi salomatligi, iqtisodiy faoliyati va ijtimoiy barqarorligiga katta zarar yetkazdi. Orol muammosi bugungi avlod uchun muhim tarixiy saboqdir. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, transchegaraviy suv manbalarini adolatli boshqarish va tabiat bilan uyg'un rivojlanish zamonaviy dunyoning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Ashirbekov U., Zonn I.S. Aral: The History of Dying Sea. International Fund for Saving the Aral Sea. – Dushanbe, 2003. – P. 86.
2. Komilov O. O'zbekistonda sug'orish tizimi rivojlanishi: yutuq, muammo va oqibatlar (1951–1990). – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 265-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2010-yil 20–22-sentyabr kunlari BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasida “Ming yillik rivojlanish dasturi” doirasida qilgan ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2010-yil 22-sentyabr.
4. Sultonov P.S., Ahmedov B.P. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2004. – 119-bet; O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000. – 302–303-betlar.
5. Kamolov B. Orolni tiklash mumkin! // Inson va siyosat. – Toshkent, 1991. – №1. – 55–56-betlar; Sultonov P.S., Ahmedov B.P. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2004. – 116-bet.
6. O'zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – 507-bet; Micklin P.P. Desiccation of the Aral Sea: A Water Management Disaster in the Soviet Union // Science. – Vol. 241. – Washington, 1988. – P. 1170.
7. Alimov T.A., Rafiqov A.A. Ekologik xatolik saboqlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1991. – 53-bet; Jensen S., Mazhitova Z., Zetterstrom R. Environmental Pollution and Child Health in the Aral Sea Region in Kazakhstan // Science of the Total Environment. – 1997. – Vol. 206, №2–3. – P. 187–193.
8. Agentstvo MFSA po realizatsii proyektov MFSA v Uzbekistane. Aralskoye more: Mify i realnost. – URL: [https://aral.uz/wp/ifa/history\\_aral/](https://aral.uz/wp/ifa/history_aral/)